

DEVID RISMENNING “OLOMONDAGI SHAXSLAR” ASARI

Hamroyeva Oynisa Azamatovna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti,
O'zbek tili ta'limi fakulteti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası,
Sotsiologiya yo'nalishi 1-bosqich talabasi.

oynisahamroyeva22@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11352965>

Annotatsiya. Maqola Devid Rismanning ilmiy ishlarini, sotsiologiyaga qo'shgan xissasi va asosiy asarlaridan biri bo'lgan “Olomdagi shaxslar” asarining tahlilini yoritib beradi.

Kalit so'zlar. Olomon, shaxs, sotsial, ijtimoiy, freydizm, neofreydizm, psixoanaliz, erkin-radikal.

PERSONS IN THE CROWD BY DAVID RISMAN

Abstract. The article sheds light on the scientific work of David Riesman, his contributions to sociology, and the analysis of one of his works, "Persons in the World".

Key words: Crowd, individual, social, social, Freudianism, neo-Freudianism, psychoanalysis, free-radical.

ЧЕЛОВЕКИ В ТОЛПЕ, ДЭВИД РИСМАН

Аннотация. В статье освещается научная деятельность Дэвида Рисмана, его вклад в социологию, а также анализ одной из его работ «Человек в мире».

Ключевые слова: Толпа, индивидуальность, социальная, социальная, фрейдизм, неофрейдизм, психоанализ, свободный радикал.

Kirish. Sotsiologiyada freydizm neofreydizmga qadar yo'lni bosib o'tgan. Neofreydizm, asosan, AQSHda, ruhiy tahlilning amerikacha sotsiologiya bilan birlashuvi zahirida vujudga keldi, uning asosiy namoyandalari esa Erix Fromm va Devid Rismen edi. Neofreydizmda shaxs ruhiyatiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy omillar ahamiyati sezilarli kuchayadi. Freyddda asosiy tushuncha hisoblangan va unda faqat biologik mexanizmlar bilan bog'liq bo'lgan ongsizlik neofreydizmda ijtimoiy va ruhiy tuzilmalar o'rtasida bog'lovchi bo'g'inga aylandi.

Bundan tashqari Devid Rismen psixoanalizda Erix Fromm bilan birga erkin- radikal oqim tarafdari ham hisoblanadi.

Metod va materiallar. Erix Frommning nazariy g'oyalari, ayniqsa kapitalizm sharoitida sotsial xarakter va shaxsning begonalashuvi konsepsiyalari sohasidagi qarashlari o'z zamonasi ijtimoiy tafakkuriga katta ta'sir ko'rsatdi. Bu ta'sirni boshidan o'tkazgan tadqiqotchilardan biri - amerikalik sotsiolog, ijtimoiy ruhshunos, Amerika sotsiologiya maktabining ruhiy tahlil namoyandasi Devid Rismen (1909-2002) edi. Uning asosiy asarlari: “Yolg'iz olomon: amerikacha tabiat o'zgarishi tadqiqoti” (1950, N.Gleyzer va R.Denni bilan hammualliflikda), “Olomdagi shaxslar” (1952) kabi asarlari hisoblanadi.

Rismen eng ommabop mualliflar va sotsial xarakter konsepsiyalari asoschilaridan biri bo'ldi.

U o'zining "Olomondagi shaxs" asarida jamiyatning uch tipiga xos bo'lgan uch tipdagi xarakter haqida fikr yuritadi. Birinchi tip – urug'-aymoqlar, tabaqa, toifada urf bo'lgan xulq-atvor namunalariga qaratilgan konservativ tipdir. U industriallashtirishdan oldingi jamiyatga xos¹.

Xarakterning ikkinchi tipini Rismen "o'zini o'ylaydigan shaxs" deb belgiladi. Bunday shaxs an'analari unutilayotgan, ommaviy axborot vositalari bo'lmagan yoki rivojlanmagan, birlamchi guruhlar tomonidan sust nazorat qilinuvchi ilk industrial jamiyatga xosdir. Bu tipdagi xarakter sohibi bo'lmish shaxs kuchli, sobitqadam, tadbirkor, yangiliklar va o'zgarishlarga moyildir. Shu bilan birga, bu yerda ham an'anaviy me'yorlar va qadriyatlar ahamiyati saqlanib qolgan. Uchinchi tipdagi xarakter iste'molchi, ya'ni rivojlangan industrial jamiyatga o'tish davrida tug'iladi va "tashqi muhitni o'ylaydigan shaxs" nomini oladi. Bunday xarakterga ega shaxsning xulq-atvori qog'ozbozlik, ommaviy axborot vositalari, moda, aloqa va munosabatlarning hukmron tizimi ta'sirida shakllanadi, ammo zinhor an'analari va tamoyillar, qabul qilingan me'yorlar va qadriyatlar ta'sirida emas.

"Tashqi muhitni o'ylaydigan shaxs"da kuchli mustaqil "Men" hissi bo'lmaydi deb ta'kidlaydi Devid Rismen o'zining "Olomondagi shaxslar" asarida. "O'ta men" hissini esa bundan ham murakkabroq ekanini bildiradi. Bu bir qolipga solingan va qiyofasini yo'qotgan, ortdan turib boshqarish obyekti va begonalashuv hosilasi bo'lgan shaxsdir. Bunday tipdagi shaxs chin insoniy fazilatlariga (muhabbat, ehtiros, haqqoniylik, halollik va hokazolarga) intiladi, ammo butun tashqi ta'sir tizimi unga halal beradi. Barcha aytib o'tilgan xarakter tiplari zamonaviy jamiyatda yonmay yashaydi, deb hisoblaydi Rismen.² Ammo ulardan har birining salmog'i va ta'siri turlichadir, ular iqtisodiy, ijtimoiy, demografik omillarga, jamiyatning urbanizatsiya darajasiga bog'liq. So'nggi, uchinchi tip "olomonda yolg'izlik"ni ifodalaydi, ammo ayni damda chinakamiga ijobiy sotsial xarakter - aniq, oqilona maqsadlarga ega bo'lgan, iste'molparast jamiyatga va madaniy muhit ta'sirlariga qaram bo'lmagan "mustaqil shaxs"ga intilishni paydo qiladi. Rismen sotsial xarakterlarga erkin tanqid nuqtayi nazaridan qaraydi, ba'zan juda qattiq tanqid qiladi. Bu tanqid qog'ozbozlikka, iste'molparast jamiyatga qarshi qaratilgan. U hayotning turli jabhalariga - mehnat, o'yinlar, ta'lim, hordiq, din, hokimiyat, erkinlik va hokazolarga taalluqli. Sotsiolog o'z tanqidida ba'zan klassik kapitalizm davrini birmuncha ideallashtirib yuboradi.

Xulosa. Kitob asosan zamonaviy muvofiqlikni o'rganish bo'lib, u "ichki yo'naltirilgan" va "boshqa yo'naltirilgan" shaxslarning mavjudligini tasdiqlaydi. Rismanning ta'kidlashicha, Ikkinchi jahon urushidan keyingi Amerika jamiyatining xakteri odamlarni "boshqa tomonga yo'naltirilganlik" ga undaydi, buning eng yaxshi namunasi zamonaviy shahar atrofi bo'lib, u erda odamlar qo'shnilarining roziligini izlaydilar va o'z jamiyatlaridan chetlatishdan qo'rqishadi. Ushbu turmush tarzi majburlash ta'siriga ega bo'lib, odamlarni o'z hayotining "ichki yo'nalishi" dan voz kechishga majbur qiladi va ularni o'z jamiyatining maqsadlari, mafkurasi, yoqtiradigan va yoqtirmaydigan narsalarni olishga undaydi³.

¹ Зборовский Г.Е. История социологии: современный этап: учеб. для вузов. 2-е изд., испр.и доп. - Сургут [и др.]: РИО СурГПУ, 2015. - С. 89.

² "David Riesman". American Academy of Arts & Sciences. Retrieved 2022-08-09.

³ Todd Gitlin, "David Riesman, Thoughtful Pragmatist", The Chronicle of Higher Education, 2002-05-24 accessed 2006-11-29.

Bu bir-birining xohish-istaklarini bajarishga qodir bo'lmagan odamlarning qattiq guruhlangan olomonini yaratadi. Kitob Amerika xarakterining muhim tadqiqoti hisoblanadi⁴.

Risman yirik jamoat ziyoli, shuningdek, sotsiolog edi va sotsiologlar hozir "jamoat sotsiologiyasi" deb ataydigan narsaning dastlabki namunasini ko'rsatdi⁵.

REFERENCES

1. Зборовский Г.Е. История социологии: современный этап: учеб. для вузов. РИО СурГПИУ, 2015.
2. "David Riesman". American Academy of Arts & Sciences. Retrieved 2022-08-09.
3. Todd Gitlin, "David Riesman, Thoughtful Pragmatist", The Chronicle of Higher Education, 2002.
4. "Neil McLaughlin, Critical Theory Meets America, 2001.
5. "APS Member History". search.amphilsoc.org. Retrieved, 2022.
6. Jiyanmuratova Gulnoz. Sotsiologiya tarixi. – T.: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 466 b. / https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=fdboTmYAAAAJ&citation_for_view=fdboTmYAAAAJ:W7OEmFMy1HYC
7. Gulnoz J., Bunyod N. YOSHLAR IJTIMOYIY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISH–USTUVOR VAZIFA //ZAMONAVIY DUNYONING IJTIMOYIY MANZARASI VA JAMIYAT TUZILMALARI TRANSFORMATSIYASI. – 2024. – T. 1. – №. 1.

⁴ "Neil McLaughlin, Critical Theory Meets America (2001).

⁵ "APS Member History". search.amphilsoc.org. Retrieved 2022-08-09.